

MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT BOZORINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Daminova O‘g‘iloy Mirzaqul qizi

TDIU doktoranti

daminovaogiloy@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola mintaqaviy oziq-ovqat bozori tushunchasining mazmuni ochib berishga bag‘ishlangan. Shuningdek, mintaqaviy oziq-ovqat bozorining mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi asosiy vazifalari tahlil qilingan. Maqolada mintaqaviy oziq-ovqat bozorining tarkibiy qismlari, uning asosiy funksiyalari va bu funksiyalarni amalga oshirishdagi asosiy vazifalari ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola nazariy nuqtayi nazardan mintaqaviy oziq-ovqat bozorining barqaror rivojlanishi va uning iqtisodiy tizimdagagi o‘rnini haqida tushunchalarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *mintaqaviy bozor, mintaqaviy oziq-ovqat bozori, mintaqaviy oziq-ovqat bozori funksiyalari, bozor tarkibi, bozor tahlili, bozorni rivojlanirish xususiyatlari.*

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ПРОДОВОЛЬСТВЕННОГО РЫНКА

Даминова Угилой Мирзакул кизи

Докторант ТГЭУ

daminovaogiloy@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена объяснению концепции регионального продовольственного рынка. Также были проанализированы основные задачи регионального продовольственного рынка в обеспечении продовольственной безопасности страны. В статье анализируются составляющие регионального продовольственного рынка, его основные функции, а также значение основных задач в реализации этих функций. Статья направлена на расширение понимания устойчивого развития регионального продовольственного рынка и его роли в экономической системе с теоретической точки зрения.

Ключевые слова: региональный рынок, региональный продовольственный рынок, функции регионального продовольственного рынка, структура рынка, анализ рынка, характеристики развития рынка.

FEATURES OF REGIONAL FOOD MARKET DEVELOPMENT

Daminova Ugiloy Mirzakul kizi

Doctoral student of TSUI

daminovaogiloy@gmail.com

Abstract: This article is devoted to revealing the essence of the concept of the regional food market. Also, the main tasks of the regional food market in ensuring the country's food security are analyzed. The article analyzes the components of the regional food market, its main functions and the importance of its main tasks in implementing these functions. From a theoretical point of view, the article serves to expand the understanding of the sustainable development of the regional food market and its role in the economic system.

Keywords: *regional market, regional food market, regional food market functions, market structure, market analysis, market development characteristics.*

KIRISH

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining ahamiyati shundan iboratki, u mintaqasi ahonisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, samarali ta'minot tizimini yaratish, qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, hududning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va bozorni aholining barcha ijtimoiy guruhlari uchun ochiq qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shuningdek, bu bozor sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligini saqlash va aholi daromadlarini tenglashtirishga imkon yaratadi.

Bu muhim masalalarni hal qilish, bir tomondan, hududning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va oziq-ovqat yoki xom ashyo resurslarini optimal joylashtirishni ta'minlashni, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va kontsentratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni talab etadi. Ya'ni, bozor talablariga mos keladigan, barcha qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun iqtisodiy foyda keltiradigan ixtisoslashgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zonalarini tashkil etish zarur. Ikkinci tomondan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabini o'rghanish hamda bu talabning o'zgarishi oziq-ovqat narxlarining o'sishiga, shuningdek, aholi jon boshiga oziq-ovqat iste'moli hajmi va tarkibining dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarni to'g'ri boshqarish mintaqaning oziq-ovqat ta'minati va iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorini har tomonlama tahlil qilish, qishloq xo‘jaligining asosiy sohalari bo‘yicha mintaqaviy tovar resurslarini shakllantirish jarayonlarini kuzatib borish imkoniyatini yaratadi. Bu tahlil, bir tomondan, mintaqadagi xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, shu bilan birga, uning raqobatbardoshligini va sotuvchanlik darajasini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishda yordam beradi. Ikkinchi tomondan, bu jarayon to‘lovga qodir talabni to‘liq qondirishni ta’minlash uchun sotishning ilg‘or va samarali shakllarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilar o‘rtasidagi tovar almashinuvining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv mintaqaviy oziq-ovqat bozorining samarali ishlashini, mahsulotlar yetkazib berish tizimining yaxshilanishini va iste’molchilarining ehtiyojlarini mukammal qondirishni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyot tarmoqlarida mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va mintaqaviy oziq-ovqat bozorlarini rivojlantirishga doir ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu masalalar mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan keng o‘rganilgan, va shu sohada o‘zining muhim ilmiy ishlarini taqdim etgan bir qator taniqli olimlar mavjud. Ulardan B.E. Mamarahimov, T.S. Rasulov, T.V. Uskova, R.Ya. Selimenkov, A.N. Anishenko, A.N. Chekavinskiy kabi olimlarning ishlarini keltirish mumkin. Ularning ilmiy izlanishlari mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va bozorni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan [1].

A. B. Borisov o‘zining tadqiqotlarida mintaqaviy bozorlarni “ma’lum bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan alohida bozorlar sifatida tasvirlaydi, ularning joylashuvi, taklif etilgan tovarlar turlari, narxlari, bozor kon’yunkturasi, talab va taklif bilan ajralib turishini” ta’kidlaydi[2]. Bu ta’rif mintaqaviy bozorlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan, ular joylashgan hududning iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

“Mintaqaviy oziq-ovqat bozori” kontseptsiyasiga kelsak, S.V. Doholyan, P.S. Yunusova, R.K. Shibayev va F.R. Ishakov tomonidan taklif etilgan ta’riflar muhim ahamiyatga ega. Ular mintaqaviy oziq-ovqat bozorini “mintaqa aholisining oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo‘jaligi xom ashvosiga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘z ishlab chiqarish orqali barqaror qondirishga qaratilgan almashinuv sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlар to‘plami” deb ta’riflaydilar. Shu bilan birga, ular oziq-ovqat mahsulotlarining bir qismini import qilishni ham (oqilona hajmda) muhim deb hisoblaydilar, chunki bu bozorning diversifikatsiyasini va barqarorligini ta’minlashga yordam beradi [3].

Bundan kelib chiqadiki, yuqorida keltirilgan ta’riflar turli ilmiy ishlar doirasida shakllantirilgan va ularning har biri mintaqaviy oziq-ovqat bozorining o‘ziga xos jihatlarini yoritishga qaratilgan. Har bir olim tomonidan taqdim etilgan ta’riflar o‘zgacha nuqtai nazarga asoslangan bo‘lib, mintaqaviy oziq-ovqat bozorining rivojlanishi va uning samaradorligini ta’minlashga oid muhim tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan ta’riflarning barchasi, ko‘pincha, ularning mualliflari tomonidan turli ilmiy yo‘nalishlar doirasida ishlab chiqilgan. Ushbu ta’riflarning mazmuni har bir ilmiy ishning asosiy jihatlarini yoritishga va mavzuni to‘liq qamrab olishga qaratilgan. Ta’riflarning har biri mintaqaviy oziq-ovqat bozorining muhim xususiyatlarini va uning rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni tushunishga yordam beradi.

Mavjud ta’riflarni chuqur tahlil qilish, shuningdek, hozirgi davrda iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish asosida mintaqaviy oziq-ovqat bozorining yanada aniqroq va kengroq ta’rifi shakllantirish zaruriyatini tug‘diradi. Ushbu ta’rifda mintaqaviy oziq-ovqat bozorining barcha asosiy jihatlari, shuningdek, iqtisodiy muammolarni hal qilishda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlar ta’kidlanishi lozim. Shu bilan birga, mintaqaviy oziq-ovqat bozori - bu o‘ziga xos dinamikaga ega bo‘lgan, talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga intiladigan, tovarlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish va iste’mol qilish jarayonlarida iqtisodiy ratsionallikni kuzatadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida qaralishi kerak. Bu ta’rif, shuningdek, mamlakatning oziq-ovqat ta’minoti siyosatini ham hisobga olgan holda, mintaqaviy bozorlarning ahamiyatini tushunishga imkon beradi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ishida mavzuning dolzarbliji, mahalliy va xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan ilmiy tadqiqotchilar va olimlar tomonidan mintaqaviy oziq-ovqat bozorining mazmuni va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida ilgari surilgan nazariyalar, fikr-mulohazalar va o‘ziga xos xususiyatlar bat afsil o‘rganilib, tahlil qilingan. Tadqiqotda, shuningdek, mintaqaviy oziq-ovqat bozorini samarali rivojlantirishning asosiy maqsadi aniq belgilangan. Bu maqsadga erishish uchun mintaqaviy oziq-ovqat bozoriga ta’sir qiluvchi omillar nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan va aniqlangan omillar asosida rivojlanish mexanizmi va tizimi ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya metodlari, tizimli va mantiqiy tahlil hamda iqtisodiy tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Ushbu yondashuvlar yordamida bozorning rivojlanish jarayonlarini yanada chuqurroq tushunish va uni amaliyotda qo’llash mumkin bo‘ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mintaqaviy oziq-ovqat bozori - bu mahalliy aholi va sotuvchilar (ishlab chiqaruvchilar, vositachilar) o‘rtasida oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish va sotish bo‘yicha yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi bo‘lib, uning asosiy vazifasi jamiyat hayotini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat ta’minotini ta’minlashdan iborat [4]. Ushbu bozor aholining oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirishni tashkil etganligi sababli, uning faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mintaqaviy oziq-ovqat bozori faoliyatiga yetarlicha e’tibor berilmasligi, uning rivojlanishining to‘liq o‘rganilmasligi, bu jarayonlarning hudud aholisining oziq-ovqat ta’minoti bilan bog‘liq muammolarni hal etishda va to‘yib ovqatlanmaslik yoki ochlikdan himoya qilishda muhim rol o‘ynashini anglashda noaniqliklarga olib kelmoqda.

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining samarali ishlashi va rivojlanishi, o‘z navbatida, qaror qabul qiluvchilarining cheklangan resurslardan oqilona foydalanishini ta’minlaydi, bu resurslar esa talabni to‘liq qondirishga imkon yaratadi [5]. Bozor faoliyatini boshqarishda iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlash va ular bilan ishslash samaradorligi muhim omil bo‘ladi.


Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, asosan, iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu omillar mintaqalari iqtisodiyotining sanoat-agrar ixtisoslashuviga aloqador. Ushbu xususiyat, mintaqaning oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida rivojlanish darajasining yuqori bo‘lishini belgilab beradi, bu esa, o‘z navbatida, jamiyat ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyatini oshiradi. Mintaqaviy oziq-ovqat bozori nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilish, balki ushbu mahsulotlarni qayta ishslash, tarqatish va ta’minot zanjirini samarali tashkil etish bilan ham bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy jarayonlarning to‘liq integratsiyasini ta’minlaydi.

Oziq-ovqat bozorining shakllanishi, faoliyati va rivojlanishi nuqtai nazaridan, bizning fikrimizcha, uning mintaqalashtirilishi alohida ahamiyatga ega. Buning asosiy sababi shundaki, har bir mintaqalari o‘ziga xos tabiiy resurslar, ishlab chiqarish vositalari, iqtisodiy faoliyat shakllari va boshqa omillarni o‘z ichiga olgan yagona iqtisodiy makon bo‘lib, bu omillar mintaqalar o‘rtasidagi farqlarni yuzaga keltiradi. Mintaqalar o‘rtasidagi yer, tabiiy resurslar, hududiy joylashuv, iqlimiylar sharoitlar va boshqa sharoitlarning xilma-xilligi oziq-ovqat bozorini umumiylarda birlashtirishning ratsionalligini istisno qiladi. Shu sababli, har bir mintaqaning o‘ziga xos ehtiyojlarini va sharoitlarini inobatga olgan holda, mintaqaviy oziq-ovqat bozorlarini boshqarish va rivojlantirishning maxsus yondoshuvlarini ishlab chiqish zarur. Bu esa, o‘z navbatida, hududiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mintaqaviy bozor - bu hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirishning natijasi va shu bilan birga, mamlakatning ayrim iqtisodiy subyektlarini isloh qilishning zaruriy sharti hisoblanadi [6]. Mintaqaviy bozorning asosiy maqsadi, mintaqadagi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirib, ekvivalent va o‘zaro manfaatli almashinuvni ta’minlashdir. Bu, o‘z navbatida, milliy bozorga kirish va uning ichki iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining samarali ishlashi esa, mintaqa aholisini oziq-ovqat bilan barqaror ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi. Oziq-ovqat bozorining samaradorligi, ayniqsa, uning qanchalik to‘g‘ri tashkil etilganligi, ta’mnot zanjiri va mahsulot taqsimotining barqarorligi bilan belgilanadi. Mintaqaviy oziq-ovqat bozori, asosan, an’naviy bozorlar bilan bir xil tamoyillarga asoslanadi, lekin u o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, hududiy ehtiyojlarga moslashadi[7].

Shu bilan birga, mintaqaviy oziq-ovqat bozorining tarkibini va uning funksiyalarini yanada chuqurroq tushunish uchun, bozorning tuzilmasi va uning ishslash mexanizmlarini bat afsil o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bu bozorni samarali rivojlantirish va hududdagi oziq-ovqat ta’mnotini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan barcha iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlarni aniqlash imkonini beradi. (1-rasm)




1-rasm. Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining tarkibi¹

Mustaqil oziq-ovqat bozorlari va umuman hududiy oziq-ovqat bozorining samarali faoliyati va rivojlanishi mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy holatini sezilarli darajada yaxshilaydi, bu esa, o‘z navbatida, aholi tur mush sifatining o‘sishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Oziq-ovqat bozorining rivojlanishi va samarali ishlashi hududlarda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, yangi ish o‘rnlari yaratishga, turli sohalarda innovatsiyalarni qo‘llashga, hamda aholi uchun sifatli oziq-ovqat ta’mnotini yaxshilashga imkon beradi.

¹ Muallif ishlanmasi

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u, har qanday oziq-ovqat bozori singari, o‘z ichiga turli bozor subyektlarini oladi. Bu subyektlar faqat mahalliy miqyosda faoliyat yuritadiganlar bilan cheklanmay, balki boshqa mintaqalardan va chet eldan ham mahsulot va xizmatlar taqdim etadigan korxonalarini o‘z ichiga oladi[8]. Mintaqaviy oziq-ovqat bozorida tovarlar va xizmatlarning xilma-xilligi va mahsulotlarga bo‘lgan yuqori talab mavjud. Shuningdek, bu bozorda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar, odatda, kichik hajmga ega bo‘lib, raqobatbardoshlikni oshirishga intilishadi, ammo ular ko‘pincha bozorni to‘liq nazorat qilish imkoniga ega emaslar, chunki ular o‘zaro raqobatlashayotgan kichik subyektlardir.

Umuman olganda, hududiy bozorni, ayniqsa, hududiy oziq-ovqat bozorini zamonaviy sharoitda o‘rganish zarurati bir nechta omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, hududlarda takroriy ishlab chiqarish jarayoni ko‘pincha yopiq tsiklga asoslanadi, ya’ni resurslar va mahsulotlar hudud ichida ishlab chiqarilib, iste’mol qilinadi, bu esa iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi. Ikkinchidan, oziq-ovqat iste’moli doimo aniq bir hududda sodir bo‘lib, eng avvalo, o‘sha mintaqadagi aholi ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mintaqaviy oziq-ovqat bozori o‘zining ko‘p funksiyali xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu bozor, nafaqat mintaqaviy aholi ehtiyojlarini qondirish, balki ishlab chiqarish va ta’midot tizimlarini samarali boshqarish, mahsulotlarni qayta ishslash va tarqatish, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash kabi bir qator muhim vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan. Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining barcha funksiyalari va uning vazifalari yanada to‘liq tarzda 2-rasmda yoritilgan bo‘lib, bu bozorning o‘ziga xos jihatlarini va rivojlanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.



2-rasm. Mintaqaviy oziq-ovqat bozori funksiyalari va vazifalari²

² Muallif ishlanmasi

Faoliyatning asosiy muammolaridan biri - har qanday iqtisodiy tizimda oziq-ovqat bozorini shakllantirish, barqarorlashtirish va rivojlanadirish jarayonida muvozanatni saqlashdir. Oziq-ovqat bozorining barqaror ishlashi, birinchi navbatda, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilararning iqtisodiy manfaatlarini bir-biriga moslashtirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon aholi hayoti darajasi va sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Oziq-ovqat bozorining hozirgi holati, uning tarkibi va boshqarilishi milliy va mintaqaviy darajalarda hal qilinishi zarur bo'lgan masalalar sifatida qaraladi.

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorini tahlil qilishda uning xususiyatlarini chuqur o'rganish katta ahamiyatga ega, chunki bu xususiyatlar bozorning samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining o'ziga xos xususiyatlari bir necha omillarni o'z ichiga oladi va ularning har biri bozorda turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi jihatlar mintaqaviy oziq-ovqat bozorining o'ziga xos xususiyatlari sifatida ajratib ko'rsatilishi mumkin:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ob-havo sharoitiga bog'liqligi;
- ommaviy ishlab chiqarish va mahsulotlarning xilma-xilligi;
- xomashyo va tayyor mahsulotlarning cheklangan saqlash muddati;
- oziq-ovqat mahsulotlariga doimiy talab;
- mahsulotlar sifatiga (yangiligi, ta'mi, vitaminliligi), ularning assortimentiga yuqori talablar;
- tayyor mahsulot sifatining xom ashyo xususiyatlariga bog'liqligi;
- oziq-ovqat mahsulotlarini mavsum va hatto yil bo'yicha notekis ishlab chiqarish, bu esa zahira va zahira fondlarini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi;
- chiqindilardan keng foydalanish imkoniyati;
- ko'p jihatdan aholining xarid qobiliyatiga bog'liq bo'lgan ayrim turdag'i oziq-ovqat mahsulotlariga talabning moslashuvchanligi;
- mamlakatning alohida hududlarida mahsulotga bo'lgan talab va taklif o'rtaqidagi nomuvofiqlik, bu mintaqalararo va xalqaro aloqalardan foydalanishni taqozo etadi.

Bozor faoliyatining samaradorligini o'lchaning natijaviy ko'rsatkichlari, bozor xarid talabini qondirish uchun iqtisodiy resurslardan qanchalik samarali va oqilona foydalanimishini baholashga imkon beradi. Bu jarayonda, birinchi navbatda, raqobat muhiti darajasi hisobga olinadi. Ya'ni, bozorning raqobatbardoshligini oshirish uchun ishlab chiqaruvchilar qanchalik samarali ishlashlari, ular mahsulot yetkazib berish hajmini oshirish va raqobatni kuchaytirishga qancha qiziqish bildirishlari muhim omillardan biridir. Shuningdek, mintaqadagi tovar uzatish tarmog'inining rivojlanganlik darajasi ham katta ahamiyatga ega. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan taqdim etilayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab, shu bilan birga,

bozorda umumiy iste'mol talabining darajasi ham samaradorlikni aniqlashda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Bularning barchasi, bozorning barqaror ishlashini ta'minlash va uning o'sishini rag'batlantirish uchun zaruriy omillar sifatida baholanadi.

Mintaqaviy oziq-ovqat bozori obyektiv tarzda quyidagi muhim vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan[9]:

- xaridorlar va sotuvchilar o'rtasida biznes operatsiyalarini minimal tranzaksiya xarajatlari bilan amalga oshirish uchun almashinuv jarayonini ta'minlash;
- raqobatdosh ishlab chiqaruvchilarni o'z tovar va xizmatlarini yaxshilashga va ularning iste'molchi uchun foydali bo'lishini rag'batlantiradigan narxni shakllantirish;
- raqobat mexanizmi orqali oziq-ovqat bozorining hududiy ishtirokchilari uchun xarajatlarni kamaytirish;
- iqtisodiyotning oziq-ovqat sektorida resurslarni samarali taqsimlash va taqsimlash, bu mintaqqa aholisining turmush darajasini va uning turmush sifatini oshiradi.

Agar mintaqaviy oziq-ovqat bozorining faoliyati samarali bo'lmasa, uning rivojlanishini tartibga solish zarurati yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, mintaqaviy oziq-ovqat bozorining samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator texnik, texnologik, iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy choralar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni talab qiladi. Ushbu chora-tadbirlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim:

- mahalliy raqobat muhitini tartibga solish (kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, kichik va yirik korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, monopoliyaga qarshi siyosat va boshqalar);
- mintaqaning mahalliy oziq-ovqat bozorida mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishni rag'batlantirish (mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarini subsidiyalash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va boshqalar);
- mahalliy oziq-ovqat bozorining tovar o'tkazuvchi tarmog'ini rivojlantirishni ta'minlash (mahalliy ishlab chiqaruvchilarning firma do'konlarini rivojlantirishga ko'maklashish, ulgurji-tarqatish markazlarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi yarmarkalari va festivallarini tashkil etish va h. k.);
- mintaqaning mahalliy oziq-ovqat bozori mahsulotlariga talabni rag'batlantirish (aholiga maqsadli oziq-ovqat yordami ko'rsatish, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, sog'lom va muvozanatli ovqatlanishni targ'ib qilish va boshqalar).

Shunday qilib, mintaqadagi qaror qabul qiluvchilarning samarali faoliyati xaridorlarning talabini to'liq qondirish uchun mavjud cheklangan resurslardan maksimal darajada oqilona foydalanishni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Mintaqaning oziq-ovqat bozorini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun iqtisodiyotning barcha tashkiliy va huquqiy shakllarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish lozim. Bu o‘z navbatida, oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatining hajmini kengaytirishga, natijada mintaqadagi oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga yordam beradi. Oziq-ovqat bozorining barqaror ishlashi va rivojlanishi uchun samarali ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish, bozorni zamonaviylashtirish va resurslardan optimal foydalanish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bozorning barqaror ishlashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning mavjud emasligi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilarning narxlarning keskin o‘zgarishlariga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida, bozorning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oziq-ovqat bozorining barqarorligini ta’minlash uchun mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va davlat tomonidan oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni samarali tartibga solish zarur. Aks holda, bozorni rivojlantirishni amalga oshirish qiyinlashadi.

Bizning fikrimizcha, oziq-ovqat iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari quyidagi jihatlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- oziq-ovqat iqtisodiyotini tartibga solishning kompleks va maqsadli dasturlarini ishlab chiqish, bunda barcha iqtisodiy jihatlar va bozorni barqarorlashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kiritilishi zarur;
- narxlarni tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish, bu orqali ishlab chiqarish narxlarining barqarorligini ta’minlash va iste’molchilarga ma’qul bo‘lgan narxlar siyosatini joriy etish;
- moliyaviy va kredit siyosatining samarali amalga oshirilishi, bu esa oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga yordam beradi va ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlaydi;
- soliqqa tortish tizimini ishlab chiqish va uni adolatli va samarali tartibga solish, bu esa davlat byudjetiga qo‘sishmcha daromadlarni jalg qilishga xizmat qiladi;
- sug‘urta tizimi, bu orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini uchun xavfsizlik tarmog‘ini yaratish va bozorning barqarorligini ta’minlash;
- oziq-ovqat bozori ishlab chiqaruvchilariga nisbatan protektsionistik siyosatni qo‘llash, shu orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarini himoya qilish va ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish;
- qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va oziq-ovqat bozorlarini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish, bu orqali oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror yetkazib berish tizimini ta’minlash.

Bularning barchasi mintaqaviy oziq-ovqat bozorining barqaror ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi va uning rivojlanishini muhim darajada qo'llab-quvvatlaydi.

Mintaqaviy oziq-ovqat bozori iqtisodiy faoliyat yuritayotgan turli xil subyektlarning o'zaro ta'siri va hamkorligi natijasida rivojlanadi. Bu subyektlar turli sohalarda faoliyat ko'rsatib, oziq-ovqat bozorining har bir qismi uchun alohida rol o'ynaydi. Ular quyidagicha guruhanadi:

- qishloq xo'jaligi sohasidagi subyektlar: bu guruhga qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer xo'jaliklari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar kiradi. Ular oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarib, bozorga taqdim etish bilan shug'ullanadi. Ushbu subyektlar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar, ya'ni xom ashylar, bozorni oziq-ovqat bilan ta'minlashning asosi hisoblanadi.

- qayta ishslash sanoati sohasidagi subyektlar: ushbu guruh oziq-ovqat xom ashylarini qayta ishslash jarayonini amalga oshiradi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishga tayyorlaydi. Qayta ishslash jarayonining samaradorligi, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini oshirish va ularni bozorga etkazib berishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu subyektlar oziq-ovqat mahsulotlarini sanoat darajasida ishlab chiqarib, ular uchun turli xil talablar asosida mahsulotlarni tayyorlashadi.

- oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, tashish, saqlash va sotish jarayonlarini shakllantiradigan bozor infratuzilmasi sohasidagi subyektlar: bu guruhga oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, ularni turli manzillarga etkazib berish, saqlash va sotish jarayonlarini boshqaradigan subyektlar kiradi. Oziq-ovqat bozorining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan infratuzilma, shu jumladan savdo tarmog'i, saqlash omborlari va transport tizimi, ushbu guruh tomonidan yaratiladi.

Ushbu barcha subyektlarning birlashgan faoliyati mintaqaviy oziq-ovqat bozorining barqaror ishlashini ta'minlashga yordam beradi, chunki har bir guruhning o'ziga xos vazifalari va xususiyatlari mavjud. Shuningdek, ularning hamkorligi bozorning samarali rivojlanishiga, talab va taklifni muvozanatlashga, narxlarning barqarorligini saqlashga, hamda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatli va uzluksiz yetkazib berilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ибаев Р.К. Проблемы регулирования регионального продовольственного рынка в условиях реформирования АПК // РППЭ, ISSN 1812-7096, 2009, №2, с.105-111

2. Рулинская А. Г. Тенденции развития продовольственного рынка: региональный аспект. // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2004. № 3. - С. 48-51

3. Dokholyan S.V. Продовольственный рынок региона: теория и практика [Food market of the region: theory and practice]. Makhachkala, Наука плюс Публ., 2010, 251 п.
4. Стуканова И.П. Маркетинговый подход к формированию регионального рынка продовольствия. - //АПК: экономика и управление. - 2009. -№2.
5. Пашина Л.Л. Продовольственный рынок как фактор обеспечения продовольственной безопасности. /монография/ Л.Л.Пашина. - Благовещенск: ДальГАУ, 2013. – 322 с.
6. Нуралиев С. У. Продовольственный рынок: проблемы становления и перспективы развития. Волгоград, 2003. С. 280.
7. Башев В.А. Особенности формирования и функционирования аграрного рынка региона // Международный студенческий научный вестник. - 2014. - № 1.
8. Regional economics / Pod red. M.V.. Stepanova. - M.: INFRA - M, Publishing House Of the russian economic academy, 2001. - 463.
9. Zinina, L.I. Mintaqada oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish // L.I. Zinina, T.V. Gluxova. -Saransk: Mordoviya davlat universiteti, 2007. - 224 p.